

## VATAN

### Dilrabo Bobomurodova

Zulmli shamolda shamday o'chdim-u,  
O'zimniki qolib o'zga quchdim-u,  
Tilimdan,yo`limdan,dindan kechdim-u,  
Baribir boshimni silading,Vatan,  
Menga oq yo`l,umid tilading,Vatan.

O`tmishing o`rganmay burishganda yuz,  
Xazonmas, tosh yog`di,so`ldi qorako`z.  
Qarshingda bosh egib,topolmadim so`z,  
Shunda ham boshimmi silading,Vatan,  
Meni kelajakka yo`llading,Vatan.

Bag`ringda ko`kardim men—nozik nihol,  
Asrading beminnat,o`stirding halol,  
Har qanday chog`imda kelmadim malol,  
Onamday boshimni silading,Vatan,  
Otamday quvvatlab,qo`llading,Vatan.

Farzandlar aylanib nomus,oringga,  
Dosh berib doimo yo`g`-u boringga,  
Dilrabo yarasa deyman koringga,  
Senga muhabbatim yo`llagum,Vatan,  
Bolangman,bag`ringda gullagum,Vatan.

### Otam uyi

Keng qasrga kelin bo`l,  
O`z oshyoning bo`lakcha.  
Ota uyi oldida  
Bu dunyo bir ko`lmakcha. (M.Yusuf)  
Palahmonning toshi kabi otishadi,  
Qiz bolani arzon-garov sotishadi,  
-Sog`-omonmi? Tag`in o'ylab yotishadi,  
Otam uyin havosini sog`inaman,  
Teraklarning navosini sog`inaman.

“Xola-xola” o’ynab xola bo`lib ketdim,  
Yuraklarga yupanch,nola bo`lib ketdim,  
Sog’inchlarda tilka-pora bo`lib ketdim,  
Otam uyi-bolalagim sog`inaman,  
Murg`ak gul-u lolaligim sog`inaman.

Onalarning qizlar chin dilbandi ekan,  
Otalarning shirin,asal,qandi ekan.  
Lek baribir sog`inchlarga bandi ekan,  
Men ularning o’zlarini sog`inaman,  
Mehr to`la ko`zlarini sog`inaman.

-Uyingizda cho`ri bo`lib qolay, ota,  
Qalbingizning qo`ri bo`lib qolay ,ota,  
Peshonangiz sho`ri bo`lib qolay ,ota,  
Tanbehlarni,nolishlarni sog`inaman,  
Sizdan dakki olishlarni sog`inaman.

-Qiynamagin,-deysiz,-qalbim o`rtab , qizim,  
Eski og`riq, yaralarni tirnab,qizim,  
Sog`inmagin har kun meni qiynab,qizim,  
Onang bilan sho`xliklaring sog`inamiz,  
Sen sog`insang, biz bu yoqda og`rinamiz.

Endi faqat mehmon bo`lib borarkanman,  
O’zga uygaga o’z go`sham deb qararkanman.  
Ota uyda qachon yotib qolarkanman,  
O`sha uyning devorlarin sog`inaman,  
Tunda yulduz diyordalarin sog`inaman.

Ko`ngim kelmas, urf-u odat ta’siri—shu,  
Ko`ngim kelmas, kattalarning tadbiri—shu ,  
Ko`nmay netay, Dilraboning taqdiri—shu ,  
Aytolmayman,nimanidir sog`inaman,  
Borolmasam,she’r yozaman,ovunaman.